



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI YALPI VA TEMATIK TEKSHIRISNING O'ZIGA XOSLIGI

FarDU maktabgacha ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi **Botirova Zuhra Abduraximovna**
FarDU talabasi **Qodirova Gulasal Ravshanjon qizi**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11192315>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 9-may 2024 yil
Ma'qullandi: 10-may 2024 yil
Nashr qilindi: 14-may 2024 yil

KEY WORDS

nazorat, frontal, yalpi muassasa ishini har tomonlama, butunlay yalpi tekshiruv, hisobot, rahbar faoliyat, qaror, ko'rsatma, buyruq, pedagogik va metodik ish, kuzatish usuli.

ABSTRACT

Ushbu maqolada har bir Maktabgacha ta'lim tashkiloti tematik va yalpi tekshirish orqali ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralari ko'ruvchi, pedagogik ta'lim-tarbiya, pedagogik ish sifatini o'stirishda aniq amaliy yordam ko'rsatuvchi tekshirish shakli bayon qilingan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasiga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli Maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Nazorat bu - Davlat nazorati maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan rahbarlikning tekshirish shakllariga aytiladi. Mustaqil Davlatimizning qaror va ko'rsatma, yo'l-yo'riqlarini "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun" asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'lim yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir. Bu - "Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom", "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi", "Maktabgacha ta'lim dasturi", "Ilk qadam" davlat dasturlarini bajarilishi ustidan nazoratdir. O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi - Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi tamoyillariga asoslanadi.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshira borib, Maktabgacha ta'lim o'limlarida nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" deyiladi. Rahbar faoliyatini baholovchi bosh mezon - uning ishini tashkil qila bilish qobiliyatidir. Rahbar ishini shunday tashkil qilsinki, odamlar "Ha, bu Maktabgacha sohasining farovonligi yo'lida g'amxo'lik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak qo'yuvchi rahbar, deya olsun". Boshqarishni obdon puxta o'ylagan tizimini ishlab chiqish, o'mishni ma'suliyat bilan tahlil etish - kelajak yo'lini qilib borishini, o'tkir muammolarni tortinchoqlik bilan emas, balki r o'yi-rost ochib tanlash kerak. Bu vazifalarni to'g'ri, o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim o'limlari tomonidan

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat qilishning ahamiyati beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya qonun asoslarida, maktabgacha ta'lim ishlarini takomillashtirish, ilmiy fan yutuqlariga suyangan holda zamon talablari darajasidagi maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etishdir. Nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda eng yaxshi shakllarini aniqlash va amaliyotga tadbiiq etish;
2. Maktabgacha ta'limni bosharish darajasini o'stirish;
3. Maktabgacha ta'lim dasturi tinglovchilarni amalga oshirish asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishni davlat nazoratidan o'tkazish;
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini maqsadga muvofiq tekshirish;
5. Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralari ishlab chiqish va ularga amaliy yordam berish;
6. Ishdagi ijobiy tomonlarni o'rganish, umumlashtirish, va rag'batlantirish;
7. Rahbarning hodimlar bilan ishlash malakalarini o'stirishda nazorat ishlarini tashkil etish;
8. Maktabgacha ta'lim hodimlariga ta'lim-tarbiya ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Direktiv hujjat – bu farmon, farmoyish, yo'l-yo'riq, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan quyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z hodimlariga bergan ko'rsatma yo'l-yo'riqlariga aytiladi.

Frontal – yalpi – yangi tekshirish turida bu usul kun davomida tekshirilayotgan pedagogic jarayonni o'z ichiga oladi, bunda: rejali, ta'lim-tarbiya ish mazmunini va turli tarbiya ishini muvofiqlashganligi, maishiy hayotda bolalar hayotini va tarbiyasini tashkil etish, o'quv-tarbiya usul va uslublarni tashkil etish, bolalarning o'yini, mehnati faoliyatlarini kuzatishdan iborat.

Tematik nazorat turida esa – kuzatish usuli tanlangan mavzuga va xardaloltnomasiga bog'liqdir. Agar ahvoli kuzatilayotgan bo'lsa unda tekshiruvchi mashg'ulatlarini chuqur kuzatadi, uning dastur mazmuniga, tuzilishiga, metodikaiga chuqur ahamiyat beradi.

Frontal – yalpi tekshirishga barcha tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ularning kuchli yoki kuchsizligidan qat'iy nazar tekshirilishi kerak. Kuchsiz tashkilotlarga ahamiyatni ko'proq jalb qilishi lozimdir. Frontal-yalpi tekshirish 4 yilda 1 marta maktabgacha ta'lim o'limlari (viloyat maktabgacha ta'lim vazirligi, shahar, tuman maktabgacha ta'lim o'limi) tomonidan o'tkaziladi.

1. Frontal-yalpi tekshirish o'tkazishda avval to'la-to'kis tuzilgan, tasdiqlangan tekshirish rejasi, unda nazoratdagi asosiy masalalar, savollar aniq yoziladi, tekshirish metodi, tekshiruvchilarning ish vazifalari, majburiyatlari va tekshirish muddati ko'rsatiladi. Nazorat qilishni, albatta direktorning ishtiroki bilan o'tkazish kerak, tashkilotlarga qarashli maktabgacha ta'lim tashkilotlarda esa shu ko'rkabinetning vakili qatnashadi.

Tematik tekshiruv bu — odatda, yilda bir marta o'tkazilib, maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining ayrim tomonlarini (muayyan yo'nalishlar yoki mavzular doirasida) nazorat qilish shakli hisoblanadi. Masalan, «Mehnat tarbiyasi», «Axloqiy tarbiya», «Maktab bilan aloqa», «O'yin mashg'ulotlarini tashkil etish» kabi mavzular shular jumlasidandir.

Masalan, «Mehnat tarbiyasi» mavzusi bo'yicha tekshiruvda quyidagi masalalarga aniqlik kiritish nazarda tutiladi:

1. guruh rejalari muddatini e'tiborga olgan holda tekshirish (chorak mobaynida, yarim yillik).
Maqsad: bajarilgan va bajariladigan ishlarni aniqlash;

2. mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish; bolalar mehnatining eng muhim tomonlarini ko'ra olish;
3. kattalar va bolalarning birgalikdagi mehnatini kuzatish;
4. bolalarning kattalar mehnatiga munosabati;
5. bolalar o'yinlarida mehnatni aks ettiruvchi jarayonlarni kuzatish;
6. bolalar bilan individual suhbatlashish;
7. bolalar tomonidan bajarilgan ishlar tahlili;
8. tarbiyachining kundalik yozuvlarini ko'zdan kechirish;
9. guruhdagi o'quv materiallarini tekshirish;

Nazoratchi-uslubchi guruh rejalarini (3—6 oylik) o'rganib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirilishini, oylik, chorak va istiqboldagi ish rejalarida ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlari e'tiborga olingani, qaysi yo'nalish tushirib qoldirilgani va buning sabablarini aniqlab olishi kerak.

Agarda barcha davlat va nodavlat maktab tashkilotlarida tematik frontalyalpi tekshirishlar rahbarlar tomonidan oqilona, o'z vaqtida va mukammal tarzda amalga oshirilsa va undan ko'rilib chiqqan muammo va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilib, yutuqlari esa omma oldida taqdirlansa, oldingi muammo va kamchiliklarga boshqa yo'l qo'yilmasa, kelgusida, kelajakka qo'yilgan ustuvor rejalarimiz hammasi ketma ket amalga oshirilib boriladi. Prezidentimiz qabul qilishgan qarorlarga muvofiq ish ko'rsak va ularni ko'zdan chetda qoldirmasak, maktabgacha ta'lim tashkiloti yanada barkamol bo'ladi va yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi, -T.O'zbekiston, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, -T.O'zbekiston, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, -T.O'zbekiston, 1997.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Namunaviy nizomlari, -T.O'zbekiston, 2007.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari, -T.2008.
6. Ilhom S., Kizi S. G. N. Early students in mathematics formation of fundamentals of economic knowledge. – 2022.
7. Солиев И. С., Муродиллаевич Қ. Н. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини ривожлантириш //Образование. – 2020. – Т. 9. – С. 10-11.
8. Sobirjonovich S. I. et al. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 124-130.

9. Турсунова Д., Аминжонова М. ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА ГЕНДЕР ЁНДАШУВНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 16-18.
10. qizi Ergasheva D. S. COMPREHENSIVE STUDY OF UZBEK FOLK TALES IN PRIMARY SCHOOL EDUCATION //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 26. – С. 14-22.

